



## O'ZBEKISTON IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING USTUVOR VAZIFALARI .

## СОЦИАЛЬНАЯ РАБОТА В УЗБЕКИСТАНЕ ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .

## PRIORITIES OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF SOCIAL WORK OF UZBEKISTAN .

*Sultonova Nazokatxon Otabek qizi*

*FarDU tarix fakulteti talabasi .*

*Султанова Назокатхон Отабековна*

*Студент исторического факультета ФГУ*

*Sultanova Nazokatkhan Otabek daughter*

*Student of the Faculty of history of FarDU*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmayotgani, davlatimiz tomonidan barcha qatlama vakillariga munosib turmush sharoitlari yaratilibgina qolmay, ularni har tomonidan qollab-quvvatlash borasida ham mana shunday ishlar amalga oshirilayotgani, natijada esa ijtimoiy zaif qatlamning faol hayotga qaytishi hamda amaliy ishlari bilan orqali yurtimiz rivojiga munosib xissalarini qo'shishga erishililayotganligi yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещается, что в нашей стране никто не остается без внимания и ласки, что государством не только создаются достойные условия жизни для всех слоев населения, но и проводится работа по их поддержке, в результате которой социально уязвимые слои возвращаются к активной жизни и через практическую работу добиваются внесения достойного вклада в развитие страны.

**Annotation:** this article highlights the fact that no one is left out of love and attention in our country, that proper living conditions are created by our state for representatives of all walks of life, such work is being carried out by everyone in order to support them, and as a result, the return of the socially vulnerable layer to active life, as well as the.

**Kalit so'zlar :** ijtimoiy ish ,ehtiyoj ,g'amxo'rlik, mutaxassis , bolalar,hayriya .



**Ключевые слова:** Социальная работа ,нужда, Забота, специалист,Дети, благотворительность .

**Keywords:** Social Work ,need, Care , Specialist,Children, charity .

O‘zbekistonda Ijtimoiy ish kasbi yangi kasblardan bo‘lib, u ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga yordam, g‘amxorlik ko’rsatish, ularning jamiyatga moslashishi va integratsiyalashuviga komaklashish boyicha kasbiy salohiyatli yordamni amalga oshiruvchi malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojining kuchayib borishi munosabati bilan katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Jamiyat taraqqiyotining darajasi, odatda, bolalar va qariyalarning holati va o’zlarini qay darajada his qilishlari bilan belgilanadi. Agarda kengroq nazar tashlaydigan bolsak, o’gir hayotiy vaziyatga tushib qolgan kishilarga ko’maklashish jamiyatda madaniyat va taraqqiyot darajasining yuqori ekanligidan darak beradi. O’z yaqinlariga yordam berish, hamdardlik va xayr-ehson qadimdan turli davlat xalqlariga xos bolgan xususiyatdir. Ozbekiston xalqi ham bundan mustasno emas, albatta. Ijtimoiy soha azaliy qadriyat bo‘lib, har bir millatning oziga xos urf-odati, mentaliteti, qadriyatlar asosida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, bu azaliy qadriyatlar sifatida bizning xalqimiz orasida ming yillardan buyon davom etib keladi. Albatta, har bir millatning o’ziga xos turmush tarzi, azaliy odati, yashash turmush tarzi qoidalari mavjud bolib, uning asosiy o’zagini tashkil etadi. Insoniyat jamiyat taraqqiyotida milliy qadriyatlar asosida, urf-odatlar bilan odob-axloq o’rtasidagi munosabat, bir-biriga yordam, birodarlik asosida tuzilgan bo‘lib, bu turli ko’rinishlarda namoyon bo’ladi. Islomiy madaniyatga yo’g’rilgan xalqimiz urf-odatlaridagi ko’rinishlar va unsurlar ijtimoiy ishning malum bir yonalishida va tamoyillarida aks etadi, bugungi kunning talablariga javob beruvchi tamoyillarga uyg’unlashib ketadi.

Masalan: musulmonchilikning besh farzidan biri zakot sanaladi. Ortiqcha mol-dunyoning qirqdan birini, muhtoj insonlarga, boquvchisini yo’qotganlarga, nogironlarga yashash sharoiti ogir oilalarga berish farz qilingan. Bundan tashqari xalqimiz ananasi sifatida davom etib kelayotgan hashar, ozaro yordam, muhtojlardan xabar olish, qariyalar va bolalarga gamxorlik qilish kabi qadriyatlar aynan bugungi ijtimoiy xizmat deb atalmish sohaning ajralmas qismi bolib, bugungi kunda ham oz mavqeyini yoqotgani yoq va Mustaqillikning sharofati bilan yangicha tamoyillarda aks etmoqda. Ular saqlanishi va rivojlantirilishi zarur bolgan milliy qadriyatlar, ananalar va udumlarning asosini aks ettiradi. Bu mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlar ongida mustahkamlanishi zarur bolgan yangi ijtimoiy munosabatlar darajasi shakllantirilayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotining darajasi, odatda, bolalar va qariyalarning holati hamda ozlarining qay darajada his qilishlariga yanada kengroq nazar tashlaydigan bolsak, yordamga muhtoj kishilar qatlamiga davlatning munosabati darajasi bilan aniqlanadi. Ijtimoiy jihatdan ortda qolgan qariyalar, nogironlar, yolgiz qolganlar, kam taminlanganlar va aholining boshqa toifalariga komaklashish jamiyatning yuqori darajadagi taraqqiyoti va madaniyatli ekanligidan dalolat beradi.



Qadimdan turli davlat xalqlariga oz yaqinlariga yordam, saxovat va xayriya xos bolgan. Bu xususiyatlar ozbek xalqiga ham tegishlidir. Ular saqlanishi va rivojlanishi shart bolgan milliy qadriyatlar, ananalar va odatlarning asosini tashkil qiladi. Bu ayniqsa, mamlakat isloh qilinayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli davlatimizda bu masalaga katta etibor qaratilmoqda. Songgi bir necha yil esa u yoki bu ijtimoiy shior ostida otmoqda.

AQSh ijtimoiy muhofaza tizimining ikkinchi yonalishi, yani ijtimoiy yordam bolib, uning dasturlari asosida kambagallikda yashovchi kishilar komak pullari, oziq-ovqat, subsidiyalanuvchi uy-joy, talim olish, kasbiy tayyorgarlik uchun yordam mablaglaridir. (Welfare, Supplemental Security Income, Medicaid).

Yevropa davlatlarining ijtimoiy taminot tizimlari amerika tizimidan ijtimoiy siyosat yonalishlarini aniqlash, rejalashtirish, moliyalash va royobga chiqarishida davlatning nisbatan yuqori ishtiroki bilan ajralib turadi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarning taklif qilinishida mahalliy oz-ozini boshqarishning roli sezilarlidir. Yevropa ijtimoiy muhofaza modelining oziga xos xususiyati aholining katta miqdordagi xizmatlar va yordam turlari bilan qamrab olinganligidadir.

Asosida insonning tabiiy huquqlari konsepsiyasida yotuvchi Yevropa ijtimoiy muhofaza modeli umumfarovonlik davlati nazariyasiga tayanadi. Bu nazariyaning bosh postulatlari barcha fuqarolarning hayotiy rejalarini royobga chiqarishda boshlangich teng imkoniyatlarini yaratish, yuqori turmush darajasi, ijtimoiy tenglik va adolatni taminlashga intilishdir. Umumfarovonlik davlati barcha fuqarolar uchun rivojlangan ijtimoiy yordam tizimini shakllantiradi, tibbiy, talimiyl, psixologik, yuridik va boshqa hayotiy muhim xizmatlarni teng huquqlilik asosida taklif qiladi.

Zamonaviy Rossiyada aholiga ijtimoiy xizmat korsatishning muhim belgisi, tez rivojlanib borayotgan infratuzilmadir. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mamlakatda yangi ijtimoiy muassalarning yalpi tizimi yaratildi (statsionar, yarimstatsionar va nostatsionar). Ularda muhtoj kishilar professional darajada tegishli yordam, maslahat olishlari, qollab-quvvatlashlari mumkin. Bu kabi muassalar qatoriga qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat korsatish markazlari, aholiga majmuali xizmat korsatish markazlari, psixologik-pedagogik yordam markazlari, gerontologik markazlar, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari, bolalar va osmirlar uchun ijtimoiy boshpanalar, oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam hududiy markazlari kiradi.

Ozbekistonda demokratik islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga otish davomida ijtimoiy muammolarga alohida etibor qaratilmoqda. Yangilanish va taraqqiyotning Ozbekiston modeliga asoslanuvchi birlamchi tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy himoyadir. Kuchli ijtimoiy muhofaza deyilganda, aholini ijtimoiy kafolatlash va ijtimoiy himoya choralarining taminlanishi nazarda tutiladi. Bunda har bir fuqaro uchun zaruriy shart sharoitlar yaratilgan.



Ushbu yillarda ijtimoiy siyosatning nisbatan muhim yonalishlaridan biri fuqarolarga samarali ijtimoiy yordam korsatish imkonini beruvchi ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi boldi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy va demografik vaziyat etiboriga olingan holda bozor munosabatlari ornatilishiga qarab intilish davomida bosqichma-bosqich ozgarib brogan aholini ijtimoiy muhofazalash mexanizmi tuzildi. Dastlabki bosqichda bu barcha aholini himoyalovchi ijtimoiy himoya bolib, aholi turmush darajasini keskin tushib ketishining oldi olindi va mamlakatda barqarorlikni saqlanishiga olib keldi.

Islohotlarning chuqurlashishi bilan asosiy diqqat manzilli ijtimoiy himoyaga jalg qilindi. Barcha komak pullari va yordam oilalar orqali amalga oshirildi va bunday komak istemolchilari kam taminlangan oilalar, qariyalar va bolalar boldilar. Zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining oziga xos xususiyati aholining turli qatlamlariga qatiy tabaqa lashtirilgan yondashuvida boldi.

Ozbekistondagi ijtimoiy himoya tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichi barqaror iqtisodiy osish, aholi turmushining sifati jihatidan yaxshilanishi vazifalarning royobga chiqarilishiga asoslangan. Hozirda ijtimoiy himoya asoslarini aholining bandligini oshirish, xususan, tadbirkorlik faoliyati orqali iqtisodiy faolligini osishiga erishish tashkil qiladi.

Aholiga ijtimoiy xizmat korsatish tizimi zamonaviy Ozbekiston sharoitida moslashuv, alohida shaxslarning ijtimoiy qayta tiklanishi, oila va guruhlarga ijtimoiy-insonparvarlik yordam korsatish faoliyati tizimining aniq vositalari sifatida namoyon boladi.

Ozbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda muhtoj fuqarolar zaruriy yordam va muhofazaga ega boluvchi yangi muassasalarning butun bir tizimini yaratishga muvaffaq bolindi. Qariyalar, bolalar, nogironlarga gamxorlik asosan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofa qilish vazirligi, mahalliy ozini-ozi boshqarish organlari (mahalla), IIB muassasalari orqali amalga oshiriladi. Bu kabi muassasalar qatoriga aholining turli qatlamlariga ijtimoiy xizmat korsatish markazlari, aholiga psixologik-pedagogik yordam korsatish markazlari, voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy-qayta tiklanish markazlari, oila va bolalarga xududi ijtimoiy yordam korsatish markazlari va boshqalar kiradi. Hozirda mamlakat yangi ijtimoiy ish institutini yaratishostonasida turibdi. Bu institutni yaratish uchun barcha shart-sharoitlar: kuchli ijtimoiy siyosat, mahalliy hokimiyat organlari ishlari, turli jamoatchilik tashkilotlarining faoliyati mavjud.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini taminlashni ragbatlashtirishning tashkiliy chora-tadbirlari togrisida gi qarorni imzoladi.

Qarorga muvofiq, 2018-yil 1-avgustdan boshlab alohida toifadagi tadbirkorlik subyektlariga quyidagi imtiyozlar va prefensiylar beriladi:

xaridor tomonidan investitsion va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish sharti bilan davlat mulki obyektlarini nol xarid qiymatida sotish boyicha otkaziladigan tanlov savdolari



natijalariga kora tanlov savdolarining boshqa ishtirokchilari bilan uning takliflari ortasida teng sharoitlar yuzaga kelgan hollarda bitimni tuzish boyicha ustuvorlik huquqi;

Davlat mulki obyekti uchun ijara tolovini ushbu obyektga nisbatan eng kam ijara tolovi stavkasining 50 foizi miqdorida belgilash. Tijorat banklariga alohida toifadagi tadbirkorlik subyektlariga: Aylanma mablagini toldirish uchun uch oylik imtiyozli davr bilan 18-oygacha muddatga;

Asbob uskunalar va sarflash materiallari xarid qilish uchun olti oylik imtiyozli davr bilan uch yil muddatga kreditlar ajratish tavsiya etilsin.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qollab-quvvatlash davlat jamgarmasiga ushbu kreditlar boyicha foizlarni tolash uchun kompensatsiya hamda majburiyatlar taminoti yuzasidan kafillik berishni taminlash topshirildi. 2018-yil 1-avgustdan boshlab shtatdagi xodimlarning 50-foizi nogironligi bolgan shaxslardan tashkil topgan nogironligi bolgan shaxslarning jamoat birlashmalari korxonalari jami xosimlarining mehnatiga haq tolash fondi uchun yagona ijtimoiy tolov stavkasi 4,7 foiz miqdorda belgilanadi va yagona ijtimoiy tolov summasi ornatilgan tartibda taqsimlanadi.

Mazkur qaror bilan yurtboshimiz tomonidan yana bir bor mamlakatimizda tadbirkorlik bilan shugullanayotgan subyektlarni davlat tomonidan har tomonlama qollab-quvvatlanganligini korish mumkin, bunga javoban esa faqat halol mehnat qilish talab etiladi. Ayniqsa bu borada imkoniyati cheklangan shaxslarning hayotga bolgan munosabati ijobjiy tomonga ozgaradi, oz imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, oilasini, yurtini iqtisodiy tomondan rivojlanishiga salmoqli hissa qoshishi uchun ulkan imkoniyat eshiklari ochildi.

Bu qaror aholining ijtimoiy zaif qatlalmini faol hayotga qaytarish bilan birga ozlarining boshqalardan kam emasliklarini anglagan holda yurtimiz ravnaqiga xissa qoshishlariga keng imkoniyatlar yaratadi. Aholining zaif qatlami bandligini taminlashni ragbatlantirishning tashkiliy chora tadbirlari togrisida gi Prezidentimizning qarori ijtimoiy himoyaga muhtoj tadbirkorlar va jamoat tashkiloti xodimlariga qulay sharoit va imtiyozlar berilayotgani olivjanoblikdir.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan keng kolamli islohotlar, avvalo, inson uchun, uning manfaatlari uchun xizmat qilayotgani hech kimga sir emas. Ushbu qaror esa yurtimizda hech kim mehr va etibordan chetda qolmayotgani, davlatimiz tomonidan barcha qatlam vakillariga munosib turmush sharoitlari yaratilibgina qolmay, ularni har tomonidan qollab-quvvatlash borasida ham mana shunday ishlar amalga oshirilyapdiki, natijada esa ijtimoiy zaif qatlamning faol hayotga qaytishi hamda amaliy ishlari bilan orqali yurtimiz rivojiga munosib xissalarini qoshishga erishilmoqda.



## Foydalaniłgan adabiyotlar royhati:

1. Ijtimoiy ish asoslari, Darslik .Toshkent-2012
- 2.Ijtimoiy ishning etik prinsiplari, Oq'quv qo'llanma.Fargona-2019
- 3.Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari T: Fan, 1994-yil
- 4.Mannopov S. Madaniyat va sanat tarixi. Fargona 2007
- 5.Mannopov S. Madaniyatshunoslik. Farg'ona 2009.
- 6 .Ijtimoiy ish xodimining professiogrammasi (kasbiy talqini). Toshkent 2009.

<https://uzlidep.uz>

